IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ZAMONAVIY O‘ZBEK DRAMATURGIYADA POETIK MAHORAT MASALASI

Tojiyeva Ozoda Xolmamat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti ta’lim yo‘nalishi, 1-kurs magistranti
+998952630104
tojiyevaozoda50@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20224929

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasida yoritilayotgan ijtimoiy masalalarni o‘rganishga qaratilgan. Unda dramaturgiya sohasining jamiyatdagi o‘rni, odob-axloq doirasidagi roli va dramatik asarlarda ijtimoiy muammolarning aks etish holatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek adabiyotining yetakchi vakillari ijodi misolida zamonaviy dramaturgiyadagi ilmiy masalalar tahlili xususida keng fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: zamonaviy dramaturgiya, ijtimoiy masalalar, “O‘zbek dramaturgiyasi ufqlari”, teatr san’ati, drama, komediya, jaholat, ma’rifat.

Abstract. This scientific article is aimed at studying the social issues covered in modern Uzbek drama. It analyzes the place of dramaturgy in society, its role in the framework of etiquette, and the situations in which social problems are reflected in dramatic works. In the article, on the example of the work of the leading representatives of Uzbek literature, a wide range of thoughts are discussed regarding the analysis of current issues in modern dramaturgy.
Key words: modern dramaturgy, social issues, "Horizons of Uzbek dramaturgy", theater art, drama, comedy, ignorance, enlightenment.

Абстрактный. Данная научная статья направлена на изучение социальных проблем, освещаемых в современной узбекской драматургии. Анализируется место драматургии в обществе, ее роль в рамках этикета, ситуации отражения социальных проблем в драматических произведениях. В статье на примере творчества ведущих представителей узбекской литературы обсуждается широкий спектр мыслей относительно анализа актуальных проблем современной драматургии.
Ключевые слова: современная драматургия, социальные проблемы, «Горизонты узбекской драматургии», театральное искусство, драматургия, комедия, невежество, просвещение.

O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi ancha uzoq davrga borib taqaladi. Shunday bo‘lishiga qaramay dramaturgiya sohasi jadidlar davriga kelib yuqori bosqichga ko‘tarildi.

Jadidchilik harakatining aksariyat yirik namoyandalari dramaturgiyaga, teatr ishlariga alohida ahamiyat berdilar, ilk namunalarini yaratdilar. Haqiqatdan ham “dramaturgiya va teatr ma’rifat, millat taraqqiyoti, ozodligi, madaniyati, mustaqilligi g‘oyalarini tashuvchi eng asosiy ma’naviy qurollardan biri bo‘lib qoldi”[1]. Bu davrda ko‘plab dramatik asarlar yaratildi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, “Bobo va nabira”, “Yangi nikoh”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz”, “Ikki sevgi”, “To‘y”, “Turmush”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Paranji sirlari”, Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon”, “Hind ixtilolchilari”, “Chin sevish”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” kabi asarlarni jadidchilik

[1] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: “Шарк,” нашриёт-матбаа концэрнининг бош тахририяти, 1997.–Б 8.

davrining eng yorqin dramatik asarlari sifatida misol keltirish mumkin. Bu davrda yaratilgan asarlarning umumiy xususiyatlari jaholat, eski urf-odatlarni tanqid qilish, ma'rifat, ilm-fan, erkin fikrni targ'ib etish, ayollar erkinligi masalasi, milliy uyg'onish g'oyalaridan iborat edi.

Bu davrning ko'zga ko'ringan dramalaridan biri bu Cho'lponning "Yorqinoy" dramasidir. Bu drama 1920-yilda yozilgan. Drama jadidchilik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, unda ozodlik, erk va vatanparvarlik g'oyalari ramziy obrazlar orqali ifodalangan.

"Yorqinoy"ning 3 jildlikdagi nashri 1926-yilgi Moskva bosmasi asosida amalga oshirilgan. O.Sharafiddinovning aniqlashicha, o'zbek drama teatri repertuarida eng uzoq, salkam o'n yil saqlangan asarlardan. Asarning markazida Yorqinoy obrazi turadi. U xonning sarkardasi O'lmas botirning yakka-yu yagona qizi. O'lmas botir qizini o'g'ilday tarbiya qilgan, yoshlikdan qilichbozlik hunarini o'rgatgan. Kiz otasining bog'boni Po'latni sevadi. Po'latning ham unda ko'ngli bor. O'lmas botir esa qizini xonning o'g'liga bermoqchi. Bu orada Nishabsoy hokimi ham odam qo'ygan. Muallif asar voqealariga ijtimoiy (oq-qora) bo'yoq beradi. Masalaga shu davrda shitob bilan adabiyotga ham kirib kelayotgan faqirparvarlik maslagidan yondashadi. Chunonchi, qizning otasi bilan Po'lat o'rtasida o'tib bo'lmas choh bor. Po'latning barcha qarindoshlari xon va uning sarkardasi O'lmas botir tomonidan o'ldirilib, o'zi xizmatkorlikka olingan. Xonlik saltanati bilan xalq o'rtasidagi nizo avjda. Xalq junbushga kelib, ko'tarilgan. Po'lat xalq ishonchini Yorqinoyga muhabbatidan ustun qo'yib, ular bilan tog'larga chiqib ketadi va O'lmas botir qo'shiniga qarshi urushga kiradi. "Urush orqasida"gi voqealar ham shiddatli kechadi. Nishabsoy hokimi vaziyatdan foydalanib, makr-hiyla bilan Po'latning nomini o'rtaga qo'yib, qizni qo'lga tushiradi. Yorqinoy tadbirkorlik bilan Nishabsoy hokimi qo'lidan o'zini qutqaradi. Bugina emas, xalq bilan xon orasidagi urushni yarashga aylantiradi. Po'lat xon ko'tariladi, adolat qaror topadi.

O.Sharafiddinov Cho'lponning Yorqinoy obrazini yaratishida "Oloy malikasi" nomini olgan Qurbonjon dodxoh (1811— 1907) ni ko'zda tutgan bo'lishi ehtimolini qayd etadi. Bizga ham bu ancha mantiqli ko'rinadi. "Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, 1875-yilda Xudoyorxon qochib, Nasriddinbek taxtga chiqqanida xalq g'alayonlari avj olib, bir muddat Andijonning Bo'taqora qishlog'idan Po'latxon xon ko'tarilgan edi. Cho'lponning o'z qahramonini yaratishida bu voqea ham turtki bo'lgan bo'lishi mumkin"[2].

Bundan ko'rinadiki, Cho'lpon ham o'z dramasida o'sha davr voqealarini aks ettirgan. Mamlakatda sodir bo'layotgan parokandalik, ilmsizlik, jaholat, tubanlik kabi jirkanch illlatlar dramada qattiq qoralanadi. O'z o'rnida "Yorqinoy" dramasida ham vatan mavzusi asar markazida turadi. Vatan ozodligi uchun kurash hamma narsadan ustun turishi Po'lat obrazi orqali chiroyli ochib berilgan.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy: "Teatr, turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizga mujassam etib ko'rsatuvchi bir oynadir... Yoshlarimizning tarbiya yeri maktab bo'lsa, kattalarimizniki teatrulardir",− deb ta'kidlaydi. Keltirilgan fikrdan shu narsa aniqki, jamiyatda bo'layotgan voqea hodisalardan insonlarni ogoh qilish uchun teatr asosiy qurollardan biri hisoblanadi. O'sib kelayotgan yoshlarimiz nafaqat kattalar uchun ham teatr muhimdir, chunki "Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", − deganlaridek, insonlarning qulog'iga bot-bot takrorlagandan ko'ra jamiyatdagi dolzarb muammolarni teatr orqali ko'zgudagi aks kabi namoyon qilinsa, ko'zlangan maqsadga tezroq erishiladi.

Mustaqillik yillarida ham dramaturgiya sohasida barakali ijod qilindi. Bu yo'lda

Usmon Azim, Qo'chqor Norqobil, Uchqun Nazarov, Erkin A'zam, Nafas Shodmonov, Javlon Jovliyev va boshqa ko'plab dramaturglar o'z faoliyatini olib bordilar. Xususan, Erkin A'zam qalamiga mansub "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" dramasida Orol bobo obrazi orqali o'z orzu istaklarini namoyon qiladi. Asar voqealari Orol dengizi bo'yidagi kimsasiz

[2] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти, − Тошкент: "Маънавият",2004.−Б 278.

ovulda bo‘lib o‘tadi. Orol bobo asarda markaziy qahramon, u qurigan dengiz sohilida yolg‘iz o‘zi ulkan qayiq yasash bilan band. Ma’lumki, qayiq – umid, e’tiqod va insoniy matonat ramzi hisoblanadi. Dengiz qurigan bo‘lsa-da, qayiq yasash orqali qahramon o‘zligini va o‘tmish xotiralarini saqlab qolishga intiladi. Asarda nafaqat ekologik fojia ya’ni Orol muammosi, balki insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibatning yo‘qolishi va ma’naviy inqiroz masalalari batafsil yoritib beriladi. Jadidchilik harakati davrida ham Vatan mavzusi eng muhim hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda yaratilgan dramatik asarlarda ham bu mavzu asosiy bo‘lib kelmoqda. Erkin A’zamning “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” dramasidan tashqari Javlon Jovliyevning “O‘rik gullari” dramasida ham Vatan mavzusi asosiy planda turadi. Bu ikki asarda ham o‘xshash holatlar ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Kechki payt. Hovli kimsasiz.

Ota-o‘g‘il qo‘lida “diplomat” portfel, bashing kiyingan Qalimbet, uning ortidan kundalik yengil-boshda Orolbobo kirib keladi.

Orolbobo(qo‘l siltab). Qo‘y, Qalimbet, qarigan chog‘imda sarson qilib yurma odamni. O‘z uyim – o‘lan to‘shagim debdilar…

Qalimbet (o‘zini eshitmaganga solib). Hamma jihozi muhayyo! Mehmonxonayu oshxonalarini ko‘rdingiz… Bir boshga yana nima kerak, to‘g‘rimi? (“Diplomat”ini dastgoh ustiga tashlab.) Kichikroq bo‘lsayam obodgina hovli. Yozlarda karavotni qo‘yib olib…

Orolbobo. Kimniki o‘zi u ?

Qalimbet. Sizniki-da, ota, sizniki! Sizga deb olindi.

Orolbobo(hang-mang). Meniki?! Sotib oldingmi? Kimdan, qanchaga?

Qalimbet. Uzumini yeng-u, bog‘ini so‘ramang. Hukumat bobo qurgan uni! Puli to‘lansa bas, qurib beraveradi. Qarigan chog‘ingizda bir suyuntiraylik dedik-da sizni. O‘tiring bunday, o‘tiring…(U mehribonlik bilan kiftidan tutib otasini hovli o‘rtasidagi buklama o‘rindiqqa o‘tqizadi, o‘zi shunga yondosh qo‘lbola kursidan joy oladi.) Yurasizmi endi bu cho‘l-u biyobonda! El-ulus bizni ayb qilyapti-ku, shundoq o‘g‘il-qizlari shaharlarda davron surib yuribdi-yu, otalari huv bir ovloqda qarovsiz qolib ketgan, deb…

Orolbobo(hasratomuz). Cho‘l-u biyobon deysan… Onang mana shu yerda yotibdi, bobo-momolaring shu yerda… Ularni tashlab men qayoqqa ketardim,o‘g‘lim, o‘ylab gapiryapsanmi? Onangning mozorini ziyorat qilmagan kunim dunyo ko‘zimga qorong‘u… Bu yoqda qayiqlarim, Orol…

Qalimbet. Eski ashula! Orol,Orol! O‘zingiz bikasiz-ku, ota, u endi hech qachon o‘zaniga qaytmaydi, to‘lmaydi. Qayiqlaringiz ham birovga keraksiz…

Orolbobo(shasht bilan bosh ko‘tarib, jo‘shib). Nima?! Qaytmaydi, to‘lmaydi… Siz qayoqdan bilibsiz, xudomisiz?! Ha, to‘lmaydi! To‘ldirolmaysan uni! Hech biring! Olimu ulamomg ham, boshqang ham! Chunki baring foydani ko‘zlaysan! Orol g‘irrom emas, senlar g‘irrom,ha! Xudo senlarga insof bergan kuni u o‘z-o‘zidan suvga to‘ladi! Xudoyim to‘ldiradi uni, bilib qo‘y!

(Og‘ir xo‘rsinib.) O‘sha kunni ko‘rib o‘lsam armonim qolmasdi…[3]

Bu parchadan shuni anglash mumkinki, asar qahramoni Orolboboning yagona istagi o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtida yashash va Orol dengizining suvga to‘lishi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Orolboboning farzandlari uni o‘z holiga qo‘ymaydi, o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtidan hazar qilishadi. Ulg‘aygan ovulini eskilik sarqiti sifatida baholaydi. Bundan tashqari, o‘zlari xohlashmagani yetmagandek, otasining ham shu diyordan voz kechishini xohlaydi. Orolboboning farzandlari o‘z tug‘ilib o‘sgan Vatani xususida gap ketsa, uni yerga uradi va yomon so‘zlar bilan qoralaydi. Xuddi shunday holat Javlon Jovliyevning “O‘rik gullari” dramasida ham uchraydi.

[3] Ўзбек драматургияси уфқлари Тошкент: “Адабиёт” нашриёти,2020. – Б 51.

Sasha aka. Bola… Sen ham bola eding… Mehr og‘ushida katta qildik. Balki, bolangga ham mehr kerak, e’tibor kerakdir…

Maksim. Bugun siz aytgan tushunchalar eskirdi.

Sasha aka. Men aytgan narsalar eskirmaydi ham, o‘lmaydi ham…

Maksim. Nima? Siz bugun ochdan o‘ling-chi, kim sizga bitta non berarkan! Hech kim bermaydi! Meni hayotim yaxshi, u yerda ishim, hurmatim bor, pulim bor, ertangi kunga ishonchim…

Sasha aka. Seningcha, qayerda pul, mansab-martaba bo‘lsa, o‘sha yer Vatan-da?

Maksim. Dada![4]

Bu parchadan shu narsa aniqki, asar qahramoni uchun o‘z yurtidan ko‘ra, boshqa yurt ya’ni yashash oson bo‘lgan joy muhim. Pul bo‘lsa, ust-boshi but, qorni qayerda to‘q bo‘lsa, o‘sha yer ular uchun Vatandir. Bu ikki asarda ham o‘z yurtidan boshqa joylarni afzal ko‘rish holatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xalqimizda shunday bir maqol bor: “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l”. Bu maqol mag‘zini chaqadigan bo‘lsak, inson o‘zga yurtda podshoh bo‘lsa ham bir kun tug‘ilib o‘sgan yurtini sog‘inadi va unga qaytadi. Inson uchun o‘z kindik qoni to‘kilgan tuproqdan muqaddas narsa yo‘q.

“Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” va “O‘rik gullari” dramalarining bosh qahramonlari Orolbobo va Sasha aka o‘z yurtiga sodiq, Vatan so‘zi qanchalar muqaddas tushuncha ekanliklarini anglagan, dunyoqarashi keng, mehribon, qalbi pok shaxslar hisoblanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ularning farzandlari Qalimbet va Maksim uchun qayerda yaxshi yashasa, inson uchun o‘sha yer Vatan degan fikrlar keltiriladi. Bu ikki obraz orqali necha asrdan beri davom etib kelayotgan Vatan o‘zi nima ekanligini anglamaydigan manqurt kimsalardan hech qanday farq qilmaydi. Bugungi kunda ham jamiyatimizda o‘z Vataniga bunday munosabatda bo‘layotgan insonlarning ko‘pligi, odamning butun tanasini junbushga keltiradi. Axir, qanchadan qancha buyuk bobolarimiz yurt ozodligi yo‘lida o‘z jonlarini bekorga qurbon qilmadilar. Ular biz va kelajak avlodlar uchun harakat qildi. Bu yo‘lda juda ko‘p qiyinchiliklarni bosib o‘tishdi.

“Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” dramasida ustoz va shogird qanday bo‘lishi kerakligi xususida ham so‘z boradi. Asar qahramoni Orolbobоning to‘rtta shogirdi bor edi. Ular Amet, Tilovbergan, Jumaboy, Genjamurod. Barchasi birgalikda qayiq yasash bilan shug‘ullanishar, birga vaqtlarini o‘tkazar edi. Ametni otasi O‘tagan maxsum Orolbobоning yonidan olib ketadi. Bundan xafa bo‘lgan Orolbobo shogirdlariga quyidagi rivoyatni keltiradi:

Orolbobo (rivoyatga kirishib). Pirning qirq muridi bor ekan. Sizlarga o‘xshagan shogirdi. Qirq yil ichida kamaya-kamaya oxiri shulardan bittaginasi qolibdi. Ameting misoli birin-sirin tashlab ketgan-da. Pir o‘sha qolgan murididdan so‘rabdi: “Bularing nega bunday qildi ekan?” Murid chaynala-chaynala aytibdi: “Ular sizning ta’limingiz bilan Mangu kitobni o‘qiydigan maqomga yetdi. U kitobda esa…” “Gapir-gapir”,− deb qistabdi pir. “U kitob sizni do‘zaxiy deb yozgan ekan, ustoz…” “Bilaman,− debdi pir. – Haqrost, shunday yozilgan. Ammo men jannatdan ham ulug‘rog‘ini ko‘zlaganman-da… Ular-ku Jannat ilinjida ketibdi, xo‘sh, sen nega qolding?” “Chunki o‘sha kitobni o‘qishni sizdan o‘rganganman-da, pirim”, debdi murid. Qarang, qanday oqibatli ekan-a shogirdi!..

Yigitlar rivoyatdan ta’sirlangandek o‘yga toladi.

Genjamurod. Bobo-o, Jannatdan ham zo‘r deyapsiz, qanaqa joy u?

Orolbobo. Bor, o‘g‘lim, shunday joy bor. Haq, haqning dargohi deydilar uni. Bandasi umidvor-da. Mana, bobong ham umid bilan yashayapti-ku!..[5]

---

[4] Ўзбек драматургияси уфқлари Тошкент: “Адабиёт” нашриёти,2020.− Б.394.

[5] Ўзбек драматургияси уфқлари Тошкент: “Адабиёт” нашриёти,2020. − Б 58.

Bu parchadan shu narsa ma’lumki, shogird ustozini aslo norozi qilib ketmasligi kerakligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki xalqimiz: “Ustoz otangdek ulug‘”, - deb bejizga aytishmagan. Ustozning ham ota qatori shogirdida haqqi bor. Bu haqni shogird aslo ado etolmaydi. Asarda ham Orolbobo o‘z shogirdidan xafa bo‘ladi, ammo oxirida Amet ustozining yoniga qaytib keladi. Orolboboning shogirdlari o‘zining farzandlaridan-da ustozlariga munosib shogird bo‘lishadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ustoz va shogird an’anasini buzayotganlar ham topiladi. Ustozidan ozgina narsani o‘rganib bu yo‘lda o‘zim harakat qilganman degan gaplar qulog‘imizga chalinadi. Bundan ko‘rinadiki, insonlar kibrga haddan ortiq berilib ketmoqda. Juda ko‘p shogirdlarning ustozlarini xafa qilgan holatlari ham uchramoqda. Bu darajaga yetishning asosiy sabablaridan biri insonning bilim o‘zlashtirish jarayonida o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishidir. Natijada ko‘plab ziddiyatli holatlar yuzaga kelmoqda.

O‘tmishimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qanchadan-qancha buyuk siymolarimiz yashab ijod qilishgan. Ularning barchasi o‘zlariga ustoz deb bilgan insonlarning hurmatini joyiga qo‘yishgan. Hatto, kamchiliklari bo‘lsa-da, ularni ochiq ayta olmagan, aytganda ham ming uzrlarini so‘rab keyin qilgan xatoliklarini ko‘rsatishgan. Bugungi kunimizda bunday shogirdlar juda kam topiladi. Chunki insonlar o‘z aql-idroklarini hamma narsadan ustun qo‘yib ortiqcha havolanib ketishmoqda. Dramaturgiya sohasi esa insonlarga ko‘zgu tutmog‘i kerak. Bu yo‘lda asarlar yozish va ularni teatrlarda sahnalashtirish, teatr tomoshasi uchun insonlarni jalb qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi jamiyatning eng og‘riqli nuqtalariga e’tibor qaratuvchi, tinimsiz izlanishda bo‘lgan dinamik san’at turidir. U nafaqat mavjud muammolarni aks ettiradi, balki ularni milliy kontekstda tahlil qilish va yechim topish yo‘lidagi intilishlarni ham aks ettiradi. Teatr ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim agenti bo‘lib qolmoqda va o‘zbek adiblarining asarlari orqali tomoshabinni o‘ylashga, munozaraga kirishishga va ma’naviy yuksalishga undaydi. Bugungi kunda teatrlarning asosiy vazifasi zamon qahramonlari aks ettirilgan, dolzarb masalalarni ko‘taruvchi sahna asarlarini yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: “Шарк,” нашриёт-матбаа концэрнининг бош тахририяти, 1997.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маьрифат, фидойилик − Тошкент: “Маънавият”, 2002.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти, − Тошкент: “Маънавият”, 2004.
4. “Jadid dramalari poetikasi va sahnalashtirish masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent-2023.
5. Ўзбек драматургияси уфқлари Тошкент: “Адабиёт” нашриёти, 2020.
6. Umarov K. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o‘zbek teatrining o‘rni diss. avtoreferat. – Toshkent-2025.
7. www.academicsbook.com
8. https://wordlyjournals.com